

PIRLS TADQIQOTI- O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING ASOSI

Mirxalilova Nargiza Akbarovna

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi,

Haydarova Marjona Rustam qizi

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS tadqiqoti va uning mazmuni hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish darslarining samaradorligini oshirish usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, yosh avlod, ma'naviy kamolot, poydevor, o'qish malakalari, to'g'ri o'qish, tez o'qish, ongli o'qish, tushunib o'qish.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'lishi iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi bevosita milliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog'liq. Shuning uchun ham „2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi“ da xalq ta'limi oldiga zamonaviy milliy ta'lim tarbiya tizimini yaratish uchun zarur bo'lgan bir qator muhim vazifalar qo'yilgan. Shu asosda ta'lim sohasida juda katta islohatlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz“.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda o'quvchilarni doimiy tarzda kitob bilan hamroh qilish, unga qiziqtirish kabi masalalar o'qituvchining zimmasida turadi.

Xo'sh, bunga qanday erishish mumkin?

Bu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bolalarni savodxon qilib yetishtirish, dunyoqarashlarini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish, tez va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish hamda o'quvchilarni o'qish savodxonligini oshirish boshlang'ich sinf o'qish darslarining oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

PIRLS (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY) – xalqaro tadqiqot dasturining boshlang'ich sinflarning o'qish faniga tegishli ekanini hisobga olsak, ta'limda o'qish fanining o'rni yuqori o'ringa egaligini ko'rsatib turibdi. Har besh yilda bir marta o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqot dasturida dunyoning 41 tadan ziyod eng rivojlangan mamlakatlari o'quvchilari ishtirok etadi.

PIRLS – matnni o'qish va tushunish savodxonligi sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturida 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi tekshiriladi. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish hamda amaliyotga qo'llay olish qobiliyatidir. Mana shunday xalqaro tekshiruvda yaxshi natijalarni egallash uchun boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining sifatini yanada oshirish, turli metodlarni o'z o'rnida qo'llay olish malakasiga har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ega bo'lishi lozim.

Yosh avlodning ma'naviy kamolotiga katta e'tibor qaratish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqod, yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish vazifalari boshlang'ich ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Undagi ona tili va o'qish ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z g'alar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili va ayniqsa, o'qish ta'limiga o'quv fani emas balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Jamiyatimiz istiqbolda qanday bo'lishi va unda avlodlarimiz qanday yashashi har tomonlama farzandlarimizning tarbiyasi va ta'limiga bog'liq.

Poydevori soz qo'yilsa,
Bo'lar bino mustahkam.
Yengil-yelpi qo'l urilsa,
Qular marmar bino ham.
Demak, bizda jamiyatning,
Kelajagi – iqboli,
Bizning qo'limizdadir,
Istiqloq poydevori.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni tez va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish qanchalik mukammal bo'lsa, o'quvchilarning dunyoqarashi, kitobxonlikka bo'lgan muhabbati shunchalik yuqori bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda olingan bilim – ilk bilimlar poydevoridir. Ayniqsa, savod o'rgatish davrida o'qituvchi o'quvchilarga o'qishga nisbatan onglilik, to'g'rilik va ifodalilik munosabatda bo'lib o'qish hislarini mukammal darajada shakllantirishga katta e'tibor qaratishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonunda yosh avlodni tarbiyalash yo'nalishlari belgilangan. Boshlang'ich ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi boshlang'ich sinf o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish darslarida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ulardagi insoniy hislarni rivojlantirib

boriladi. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni tez va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rgatishda, berilgan matnlarning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishda o'qituvchi o'qish darsi uchun mo'ljallangan metodlarni to'g'ri tanlay bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirxalilova N.A. Use of the "Working with objects" methodology in preparing for international studies // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences // ISSN (E): 2832-8019 Volume 13, | June, 2023. Pp: 152-154. www.americanjournal.org.
2. Mirxalilova N.A. TIMSS xalqaro tadqiqoti va uning ahamiyati // Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў. Илмий-методикалық журнал. 2022/5. 36-39bet.
3. Mirxalilova N.A. Funktsional savodxonlik tushunchasi // **O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/2] ISSN 2181-7324. Falsafa** <https://science.nuu.uz/.Social> sciences. 216-218 b
4. Mirxalilova N.A. O'qish, matematik va kreativ savodxonlik funktsional savodxonlikning asosi // Yosh olimlar Axborotnomasi. Maxsus son (4)2023 104-109 b.
5. Mirxalilova N.A. Use of the "working with objects" methodology in preparing for TIMSS international studies // «Әуезов оқулары-21: жаңа қазақстан-еліміздің болашағы» М. Әуезов атындағы оңтүстік Қазақстан университетінің 80 жылдығына арналған халықаралық ғылыми-тәжірибелік конференция еңбектері. ТОМ 2-1 ШЫМКЕНТ 2023 UDC 37 292-293 b.
6. Mirxalilova N.A. O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rnini // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, echimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 18-noyabr 2022-yil. 175-178 b.
7. Mirxalilova N.A. Funktsional savodxonlikni shakllantirish vositalari // Boshlang'ich ta'lim tizimiga integrativ yondashuv: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman materiallari to'plami
8. Mirxalilova N.A. Xalqaro TIMSS 2019 tadqiqotida tabiiy fanlar savodxonligi // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami 2022 yil 22-23 dekabr 732-735.
9. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funktsional savodxonlik darajalarini oshirish // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami
10. Mirxalilova N.A. "Pedagogik ta'lim klasteri vositasida O'zbekistonda matematika ta'limini samaradorligini oshirish usullari" // TVCHDPI "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va echimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 160-165 betlar.
11. Mirxalilova N.A. TIMSS 2023 mathematics assessment scope // Annals of Forest Research <https://www.e-afr.org/> 2022. 5399-5404-b.

12. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda funksional savodxonlik darajalarini oshirish // [Home / Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть 2.
 <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542>. 174-177 b.](#)
13. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda TIMSS tadqiqotlari uchun matnli masalalar // "Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro qo'shma ilmiy-amaliy konferensiyasi <https://zenodo.org/records/10444474> 2023-yil 19-21-dekabr.
14. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova. "Uzluksiz ta'limda kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida" // "Uzluksiz ta'lim" jurnali 2021 yil 5-son 9-12 betlar.
15. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova. Funksional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari // Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў. Илмий-методикалық журнал. 2023-yil. 2/3- san. 340-346-bet.
16. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova. "PISA xalqaro dasturida matematik savodxonlik" // TVCHDPI "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va echimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 1476-1480 betlar.
17. Mirxalilova N.A., P.T. Abduqodirova. "Matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish shakllari va metodlari" // O'zbekiston Respublikasi yosh olimlar kengashi. "Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rnini" mavzusidagi respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman. 2021-yil 30-sentabr 100-101 betlar.
18. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova, P.T. Abduqodirova. Talabalarda matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish omillari" 476-480 betlar.
19. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
20. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova. Funksional savodxonlikni shakllantirish usullari // "Uzluksiz ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2022/12/20.
21. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova. To'rtinchi sinfda tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha TIMSS 2023 tadqiqotida baholanadigan mavzular // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 559-562 b. 2022/12/22.
22. Mirxalilova N.A., S. S. Akbarova. Xalqaro TIMSS 2019 tadqiqotida tabiiy fanlar savodxonligi // [Home / Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть-2.
 <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4541>. 169-173 b.](#)